

**BOSH MIYA JAROHATLARIDAN SO‘NG POSTTRAVMATIK ENSEFALOPATIYA
VA ENSEFALITNING DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI****Samatov Farrux Farxodovich****Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali tibbiy psixologiya,
nevrologiya va psixiatriya kafedrasasi assistenti, PhD
+998919115492, e-mail: samatovfarrux@icloud.com
<https://orcid.org/0009-0003-8049-5540>****Aralov Shaxzod Sayfullayevich****Saydumova Roksana Valerevna****Xudoyberdiyeva Xursanoy Anvar qizi****Xo‘shboqov Quvonchbek Odina o‘g‘li****Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali tibbiy psixologiya,
nevrologiya va psixiatriya kafedrasasi ordinatorlari
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19949027>**

Annotatsiya: Bosh miya jarohatlaridan so‘ng rivojlanadigan posttravmatik ensefalopatiya va ensefalit klinik amaliyotda muhim differensial diagnostik muammo hisoblanadi. Ushbu holatlar etiologiyasi, patogenezi va kechish xususiyatlari jihatidan farqlanadi, biroq ayrim nevrologik simptomlarning o‘xshashligi diagnostik qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Posttravmatik ensefalopatiya bosh miya shikastlanishidan keyin uzoq muddat davomida shakllanadigan surunkali jarayon bo‘lib, asosan kognitiv buzilishlar, emotsional labillik va vegetativ disfunktsiya bilan namoyon bo‘ladi. Ensefalit esa ko‘pincha infeksiyon yoki autoimmun etiologiyaga ega bo‘lib, o‘tkir boshlanishi, isitma, ong buzilishi va meningeal simptomlar bilan xarakterlanadi. Differensial diagnostikada klinik belgilar bilan bir qatorda likvor tekshiruv, nevrovizualizatsiya usullari (MRT, KT) va elektroensefalografiya muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada posttravmatik ensefalopatiya va ensefalitning asosiy farqlovchi mezonlari, diagnostik algoritmlari hamda klinik ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: posttravmatik ensefalopatiya, ensefalit, bosh miya jarohati, differensial diagnostika, nevrologiya, likvor, MRT.

Dolzarbliligi: Bosh miya jarohatlari (BMJ) nevrologik amaliyotda keng tarqalgan bo‘lib, ko‘plab asoratlar bilan kechadi. Amaliyotda ko‘pincha travmadan keyingi nevrologik buzilishlar noto‘g‘ri ravishda “posttravmatik ensefalit” deb baholanadi. Aslida esa aksariyat hollarda bu holat posttravmatik ensefalopatiya bilan bog‘liq bo‘ladi. Ushbu ikki patologiyani to‘g‘ri farqlash diagnostika va davolash taktikasini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Bosh miya jarohatlaridan keyin rivojlanadigan posttravmatik ensefalopatiya va ensefalitni klinik jihatdan farqlash mezonlarini aniqlash.

Tadqiqot materiali va metodlari: Tadqiqotda bosh miya jarohatidan keyingi bemorlarning klinik-nevrologik holati tahlil qilindi. Anamnez, nevrologik ko‘rik, laborator va instrumental tekshiruv usullari asosida differensial diagnostika olib borildi.

Natijalar: Natijalar shuni ko‘rsatdiki, posttravmatik ensefalopatiyada bemorlarda asosan bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, kognitiv funksiyalarning pasayishi va emotsional buzilishlar ustunlik qiladi. Ushbu holat mexanik shikastlanish va mikrosirkulyatsiya buzilishi bilan bog‘liq. Ensefalitda esa yallig‘lanish belgilarining ustunligi, xususan isitma, ong buzilishi, tutqanoq xurujlari va o‘choqli nevrologik simptomlar aniqlanadi. Travmadan keyin haqiqiy ensefalit kam uchrab, ko‘proq ikkilamchi infeksiya yoki immun jarayonlar bilan bog‘liq holatlarda kuzatiladi.

Xulosa: Bosh miya jarohatlaridan keyin rivojlanadigan asosiy patologik holat posttravmatik ensefalopatiya hisoblanadi. Uni ensefalitdan aniq differensial tashxis qilish to‘g‘ri davolash strategiyasini tanlash va asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Daroff V.M., Jankovic J., Mazziotta J.C., Pomeroy S.L. Bradley’s Neurology in Clinical Practice. – 7-nashr. – Philadelphia: Elsevier, 2016. – 2400 b.
2. Ropper A.H., Samuels M.A., Klein J.P. Adams and Victor’s Principles of Neurology. – 11-nashr. – New York: McGraw Hill, 2019. – 1664 b.
3. Johnson R.T. Viral infections of the nervous system. – 2-nashr. – Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 1998. – 432 b.
4. World Health Organization. Neurological disorders: public health challenges. – Geneva: WHO, 2006. – 218 b.
5. Centers for Disease Control and Prevention. Traumatic Brain Injury and Concussion. – Atlanta: CDC, 2023.
6. National Institute of Neurological Disorders and Stroke. Encephalitis Information Page. – Bethesda: NINDS, 2024.
7. Коновалов А.Н., Крылов В.В.. Черепно-мозговая травма. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2018. – 512 с.
8. Гусев Е.И., Коновалов А.Н., Скворцова В.И.. Неврология: национальное руководство. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2020. – 1040 с.